



DAVLAT BOSHQARUVIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI KELTIRIB CHIQUVCHI OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI

Bosimov Doston Olim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim
fakulteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayes
nazorati mutaxassisligi 1- kurs magistri
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8054378>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-June 2023 yil
Ma'qullandi: 17-June 2023 yil
Nashr qilindi: 19-June 2023 yil

KEY WORDS

*Manfaatlar to'qnashuvini kelib
chiqishiga imkon beruvchi
sabablarni quyidagicha
ko'rishimiz mumkin*

ABSTRACT

*Yer yuzida har bir davlatning o'z boshqaruv tizimlari
mavjud bo'lib, bir biridan farq qilishadi. Davlat
boshqaruvi tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi,
qonunga muvofiq ishlashi ularning uzoq vaqt yashashiga
olib keladi. Lekin davlat boshqaruvida manfaatlar
to'qnashuvining kelib chiqishi boshqaruv tizimida ko'p
muammolar yuzaga keltiradi.*

Yer yuzida har bir davlatning o'z boshqaruv tizimlari mavjud bo'lib, bir biridan farq qilishadi. Davlat boshqaruvi tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, qonunga muvofiq ishlashi ularning uzoq vaqt yashashiga olib keladi. Lekin davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi boshqaruv tizimida ko'p muammolar yuzaga keltiradi.

Davlat boshqaruvi tizimida manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi bir qancha omillar, sabablar mavjud bo'lib, ularni oldini olish yoki mavjud muammolarni bartaraf etish hozirgi fuqarolik jamiyatini qurish uchun juda ham muhim hisoblanadi. Manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishga olib keluvchi omillar haqida olimlarning bir qancha asarlarida, maqolalarida keltirilib o'tilgan.

Davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi omillarga to'xtaladigan bo'lsak, bularga ijtimoiy va madaniy sharoit, institusional va tashkiliy tuzilmalar, axloqiy, siyosiy muhit, shuningdek, iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlar siyosati ko'proq ta'sir qiladi.

Manfaatlar to'qnashuvini kelib chiqishiga imkon beruvchi sabablarni quyidagicha ko'rishimiz mumkin:

1. Iqtisodiy ahvol (ish haqining kamligi, davlat xizmatchisining shaxsiy biznesga bog'liqligi, insofsiz raqobat, monopoliya, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va boshqalar).
2. Institusional tuzilmalar faoliyatidagi kamchiliklar (davlat xizmatchilari malakasining kamligi, boshqaruvning samarasizligi, ichki va tashqi nazoratning sustligi, byurokratik to'siqlar, ma'muriy tartib tamoillarining murakkabligi, qonunchilikdagi bo'shliqlar, qonunlarni chetlab o'tish imkoniyati, qonunlarning murakkabligi, idoraviy manfaatlar ustuvorligi va boshqalar).
3. Salbiy ijtimoiy-madaniy omillarning (intizomsizlik, halollikning yetishmasligi, jamoatchilik nazoratining yetishmasligi, nepotizm, tanish-bilishchilik, befarqlik va boshqalar)

mavjudligi.

A.Sh. Bekmurodovning “Korrupsiyaga qarshi kurashish” [1] darsligida davlat boshqaruvida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining vujudga kelishiga bir qancha omillar sabab qilib keltirilgan va asoslab bergan. Manfaatlar to‘qnashuvi turli shakllarda va holatlar natijasida yuzaga keladi. Ularga misol sifatida esa, quyidagilar ko‘rsatiladi:

mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlarning tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi;

davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanishi;

o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish;

shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida, ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish;

mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida, tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi;

muayyan guruh manfaatlarida normativ-hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish;

ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish;

shartnomalar, bitimlar tuzishga imkoniyat yaratib berganlik uchun haq talab qilish;

davlat byurtmalarini joylashtirganlik uchun vositachilik haqi so‘rash;

davlat xizmatchilari uchun xizmatlar ko‘rsatish;

chet elgan dam olishga, safarga yuborish;

masalalarni tez hal qilib berish yoki hujjatlarni tayyorlab berganlik uchun haq so‘rash;

qarindosh-urug‘, do‘stlarni ishga joylashtirish;

rahbarning o‘z xodimi tomonidan undirilgan poradan ulush olishi.

Davlat boshqaruvida manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltiruvchi bundan boshqa yana ko‘plab omillar mavjud bo‘lib, eng muhimi ularni hal etish, ularning yuzaga kelmasligiga olib kelish hisoblanadi. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va ularga qarshi kurashish mavjud qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi va uning yuridik tabiati xalqaro doirada qabul qilingan turli hujjatlarda, jumladan, Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksida o‘zida manfaatlar to‘qnashuvini ifoda etadigan quyidagi normalar belgilanganini ko‘rishimiz mumkin:

– davlat mansabdor shaxslari xizmat lavozimlaridan o‘zi yoki oilasining shaxsiy, yoki moliyaviy manfaatlari yo‘lida huquqqa xilof ravishda foydalanmasliklari;

– davlat mansabdor shaxslari hech qanday bitimlarda qatnashmasligi, biror-bir pozitsiyani egallamasligi, xizmat vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda hech qanday moliyaviy manfaatlarga ega bo‘lmasliklari;

– xizmat davomida yuzaga keladigan shaxsiy, tijorat yoki moliyaviy manfaatdorlik haqida belgilangan tartibda xabar berishlari va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishga harakat qilishlari;

– mansabdor shaxslar xizmat vazifalarini bajarish vaqtida o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan xizmat siridan g‘ayriqonuniy maqsadda foydalanmasliklari;

– davlat mansabdor shaxslari xizmat lavozimidan ketganidan so‘ng ham qonunchilik yoki ma‘muriy reglamentda belgilangan tartibda harakat qilishi, avvalgi lavozimni suiiste‘mol qilmasliklari kerak.[2]

Bulardan tashqari, manfaatlar to‘qnashuvining yuzaga kelmasligi uchun davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini ishlab chiqilishi, davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish bo‘yicha qonun ishlab chiqish, davlat xizmatchilarining ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta‘minlash, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish kerak.

Mahalliy qonunchiligimizda ham manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga kelmasligi va ularga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilingan. Jumladan, “Davlat fuqarolik xizmatchilari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bu borada eng muhimlaridan hisoblanadi. Ushbu qonunda davlat fuqarolik xizmatchilarning kimlar ekanligi va qanday majburiyatlari bor ekanligi keltirib o‘tilgan.

Hozirda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi rasmiy qabul qilinish jarayoni ketmoqda. Qonun loyihasida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha normalar ko‘rsatib o‘tilgan. Qonunda davlat organlarining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan xabar qilingan manfaatlar to‘qnashuvi hollarining o‘zigan xos xususiyatlari hisobga olingan holda, quyidagi choralarni: o‘ziga nisbatan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo‘ysunuvidagi davlat organi yoki boshqa tashkilot hodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish; davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o‘zini o‘zi rad etishi orqarli yoki majburan chetlashtirish; davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko‘rib chiqish; davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralarni ko‘rish mumkin bo‘lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o‘tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontrakti) umumiy asoslarda bekor qilish va boshqa manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashish bo‘yicha normalar keltirib o‘tilgan.

Davlat boshqaruvida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyasini ham joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qonun loyihasida ham ushbu normalar kiritilgan.

Qonunchiligimizda manfaatlar to‘qnashuvini sodir etganlarga nisbatan eng og‘ir jazo ma‘muriy javobgarlik hisoblanadi. Ayrim xorijiy davlatlarda manfaatlar to‘qnashuvini sodir etganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik ham belgilangan. Fikrimizcha, davlat boshqaruvida manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish emas, odob-axloq meyorlari o‘rgatish va ularga amal qilishini taminlay olishimiz kerak. Finlandiya tajribasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga eng avvalo jamiyatning o‘zi jazo beradi. Bunday shaxslar uchun huquqbuzarlikni sodir etganlik juda ham uyatli holat bo‘lib, oilasi, qarindosh-urug‘lari, do‘stlari, mahallasi, xalqi oldida izza bo‘lgan va yoshlikdan huquqbuzarlik sodir etmaslik o‘rgatilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlat boshqaruvida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va

unga qarshi kurashish uchun istiqbolli rejalar ishlab chiqish kerak bo'lib, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida", "Aktivlar deklaratsiyasi to'g'risida"gi Qonunlarni tezroq qabul qilishimiz va amaliyotda joriy etishimiz kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 43-bet
2. Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksi. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/int_code_of_conduct.shtml.

